

ELEKTR ENERGIYASI SOHASIGA OID QONUNCHILIK IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI

Mirzayev G'iyosbek Isroil o'g'li

“Xalqaro huquq va inson huquqlari” kafedrasini o'qituvchisi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqola orqali elektr energiyasi sohasiga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati, elektr energiyasi resurslari, energetikasi sohasida davlat nazorati, raqamli energonazorat, elektr energiyasi sohasidagi munosabatlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, iste'molchilar, yoqilg'i-energiya resurslaridan oqilona foydalanish choralarini ko'rish masalalari ochib beriladi.*

Kalit so'zlari: elektr energiyasi, prokuror nazorati, elektr energiyasi resurslari, elektr tarmog'i, davlat nazorati, yetkazib beruvchi tashkilot, iste'molchi.

PROSECUTOR'S CONTROL OVER THE IMPLEMENTATION OF LEGISLATION RELATED TO THE FIELD OF ELECTRICITY

Mirzayev Giyosbek

Lecturer Department “International Law and Human Rights”

Tashkent State University of Law

Abstract: *Through this article, prosecutor's control over the implementation of legislation related to the field of electricity, state control of electricity resources, energy, digital energy control, relations in the field of electricity, business subjects, consumers, measures for rational use of fuel and energy resources. issues are revealed.*

Key words: *electricity, prosecutor's control, electricity resources, power network, state control, supplier organization, consumer.*

Elektr energiya sohasidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan qonunlar va boshqa qonunosti hujjatlarining subyektlar tomonidan og'ishmay ijro etilishida prokuror nazoratining o'рни beqiyosdir. Prokuratura deganda nazoratni amalga oshiruvchi davlat organi yoki bunga vakolat berilgan mansabdor shaxs tushuniladi. Prokuror *lotin tilida* “Procuratio (Procuo)” so'zi “g'amxo'rlik qilish, boshqarish”, “Procurator (Procuo)” so'zi

“boshqaruvchi, idora qiluvchi, rais, ishonchli vakil, vakolatli, prokurator, imperator daromadlarini boshqaruvchi va nihoyat “Pro-curo” so‘zi esa “g‘amxo‘rlik qilmoq, parvarishlamoq, asrab-avaylamoq, ta‘minlamoq, sodir etmoq, boshqarmoq, boshlab bormoq” degan ma‘noni anglatadi⁴⁵.

Prokuratura huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirishga mo‘ljallangan davlat organlaridan biridir⁴⁶. Biroq, bu funktsiya uning butun faoliyatini qamrab olmaydi. Prokuraturaga davlat hokimiyatidagi uch tarmoqning hech biriga kirmaydigan mustaqil davlat organi sifatida qarash, prokuratura organlarining samarali ishlashining asosiy sharti hisoblanadi.

Prokuror nazorati o‘zi nima? Prokuror nazorati – deyilganida, “O‘zbekiston Respublikasi nomidan, uning hududida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarining aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura organlarining davlat organi sifatidagi maxsus faoliyati tushuniladi”⁴⁷.

Binobarin, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati soha nazoratining mustaqil tarmog‘i, shuningdek o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, boshqa davlat idoralariga bunday keng va aniq belgilab qo‘yilgan vakolatlari berilmagan. Prokuror nazoratini amalga oshirishda ish yuritishning amaldagi tartibini ijtimoiy munosabatni tartibga soluvchi qonun hujjatlariga muvofiqligi ham e‘tiborga olinishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 143-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishi belgilangan. (*Prokuratura to‘g‘risidagi Qonun 1 modda 2-qism*).

Elektr energiyasi sohasiga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati tushunchasi bu – prokuratura organlari tomonidan elektr energiyasi sohasiga oid qonunchilik ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to‘g‘risidagi arizalar va boshqa ma‘lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik ahvoli, prokuror tomonidan choralar ko‘rilishini talab qiladigan holatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o‘tkaziladigan faoliyat sanaladi.

Shunday qilib, masalan, V.V.Gavrilovning “Prokuratura organlarining faoliyati qonunlarni bajarishga qaratilgan va qonunlarning bajarilishi

⁴⁵ Дворецкий И.Х. Латинско – русский словарь. 5-С439. – М., 1998. – С. 621.

⁴⁶ Галузо В.Н. Система правоохранительных органов России. Учебник для вузов. – М. 2010.-С 10 -14; Рахлин В.И. Сидарук М.М. Правоохранительная функция прокуратуры. –С. Петербург, 2010. – С 20-24

⁴⁷ О.М. Мадалиев Прокурор назорати. Дарслик. Умумий қисм. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. 9-бет. Сарлавҳада: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, ТДЮИ.

prokurorning dastlabki nazorati predmeti sifatida aniqlanishi kerak”⁴⁸ degan fikrni ilgari surgan.

Bunday bildirilgan fikrlarni o‘ndan ortiq uchratishimiz mumkin. Shu bilan birga, prokuratura nazoratining “predmeti” va “obyekti” tushunchalarini aniqlash jarayonida yuqorida tavsiflangan usul faqat umumiy nazariy toifalarning barqarorligi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Biroq, V.D.Lomovskiy ta’kidlashicha, “Prokuror nazorati obyekti va predmeti masalasi *“terminologiyada eng chalkash”*, ular haqidagi masalalar prokuror nazorati nazariyasida ancha chalkash hisoblanib va bu shu qadar ko‘pki, ba’zida obyekt qayerdan boshlanib, prokuror nazorati predmeti qayerda tugashini aniqlash mumkin emas”⁴⁹ – degan g‘oyani ilgari surgan.

Shunday qilib, ayrim mualliflar prokuror nazorati obyekti ostida tashkilotlar va shaxslarni tushunadilar. Boshqalar prokuror nazorati obyekti prokuratura qonuniyligini ta’minlashda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar deb hisoblashadi.

M.H.Rustamboev fikricha, “Prokuror nazorati deganda, davlat nomidan maxsus vakolatga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar – prokurorlar tomonidan qonun buzilishi hollarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf qilish, aybdor shaxslarni qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bilan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta’minlashga qaratilgan faoliyat tushunilishi lozim”⁵⁰.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bizga prokuraturaning umuman elektr energetikasi sohasidagi faoliyati va ushbu sohadagi prokuror nazorati, xususan, elektr energiyasi sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati predmeti doirasining mohiyati va mazmunini aniqlashni talab qiladi.

Bunda prokuror nazoratining mohiyatidan kelib chiqiladiki, prokurorning faoliyati qonunlar talablarini bajarish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Prokurorlar elektr energiyasi sohasida umumiy nazoratni amalga oshirishda o‘z vakolatlaridan foydalanish bo‘yicha chegarani to‘g‘ri belgilashlari kerak. Chunki bunda, bir tomondan elektr energiyasi sohasida aniqlangan qonunbuzarlik hollari ta’sir choralarini ko‘rmasdan qolmasligi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan korxonalarining operativ xo‘jalik faoliyatiga bevosita aralashmaslik, idoraviy boshqaruv va tekshiruv organlarining vazifalarini bajarmaslik lozim. Umumiy nazoratning chegarasini belgilashda quyidagi qoida mezon bo‘lishi mumkin:

⁴⁸ Гаврилов В.В. Сущность прокурорского надзора в СССР. - Саратов; Изд-во Саратовск ун-та – 1984. –С 21

⁴⁹ Ломовский В.Д. Курс прокурорского надзора в Российской Федерации. – Твер; Твер.г.ун-т, 2004 г

⁵⁰ Rustamboev M.X. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va prokuratura. – T.: TDYI nashriyoti, 2005:–11-bet.

“Qayerda qonun harakat qilsa, o’sha yerda umumiy nazorat ishga tushadi”. Prokurorlar o’zlariga yuklatilgan umumiy nazorat funksiyalarini muvaffaqiyatli ado etishlari uchun ularga zarur vakolatlar berilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni III bo‘limi prokuror nazoratiga ajratilgan. Mazkur bo‘limning I bobi Qonunlar ijrosi ustidan nazorati deb nomalangan.

Umumiy nazorat sohasida prokurorning vakolatlari asosan O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasida o‘z aksini topgan. Prokurorlarga qonunning 22-moddasidagi vakolatlar berilgandan so‘ng elektr energiyasi sohosidagi qonunlar ijrosi ustidan yana qaysi vakolatli davlat organi nazorat olib borishi mumkin. Biroq, bunday vakolatli organ davlatimizda boshqa yo‘q. Qonun buzilishi aniqlangan taqdirda prokuror ushbu qonunda hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rishga majbur.

Nazariy va amaliy tomondan tahlil qilganda “Prokuror nazorati – davlat faoliyatining mustaqil, o‘ziga xos turi hisoblanadi. Ushbu faoliyatni prokuratura organlaridan boshqa hech bir davlat idorasi, tashkiloti, jamoat tashkilotlari, yoinki, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari, shuningdek, mansabdor yoki jismoniy shaxslari amalga oshira olmaydilar.

Prokuror nazoratining mustaqilligi har qanday davlat tashkiloti, siyosiy tashkilot yoki jamoat tashkilotlaridan holi tarzda, faqatgina qonun bilan belgilangan vakolatlari doirasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari va qonun osti hujjatlari talablariga nazorat obyektlari tomonidan rioya qilinishi, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratning amalga oshirilishida ham ifodalanadi”⁵¹.

Prokuror nazorati universaldir. U turli huquq sohalari normalari bilan tartibga solinadigan faoliyat sohaslarini qamrab oladi: ma‘muriy, jinoiy, fuqarolik protsessual, jazoni ijro etish, mehnat va boshqalar. Shunday qilib, prokuror nazoratining o‘ziga xosligi shundaki, u doimiy ravishda huquqiy tartibga solishning tarmoq mexanizmlari bilan bog‘liq⁵².

O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining, harbiy qismlar, harbiy tuzilmalar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga

⁵¹ О.М. Мадалиев Прокурор нazorati. Дарслик. Умумий қисм. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. 9-бет. Сарлавҳада: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, ТДЮИ.

⁵² Амирбеёв К. Законность и роль прокуратуры в надзоре за ее состоянием//Право и жизнь. 2003. №6. С. 38.

muvofigligi prokuratura organlarining nazorat predmeti hisoblanadi⁵³. Elektr energiyasi sohasiga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini bugungi kunda elektr energiyasi sohasida olib borilayotgan islohotlar zamiridan kelib chiqib qabul qilingan qonun hujjatlari asosida tahlil qilamiz.

Har bir ijtimoiy munosabatni tartibga solishda avvalo uning huquqiy asoslarini yaratish va mexanizmlarini tashkil etish lozim. O'zbekiston Respublikasida elektr energiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda sohaga oid amalda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar elektr energiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asosi hisoblanadi.

Elektr energetikasi sohasida davlat nazorati tizimining rivojlanishi ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi ixtisoslashtirilgan Qonunchilik evolyutsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Bu tabiiy holat, chunki davlat nazorati va nazorati predmeti har doim huquqiy normalarda belgilangan majburiy talablarga rioya qilishdir.

Respublikamizda bugunga qadar elektr energiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bir qancha normativ huquqiy hujjatlari qabul qilingan.

Birinchi o'rinda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi 25.04.1997 yildagi 412-I-son Qonuni, "Elektr energetikasi to'g'risida"gi 30.09.2009 yilda qabul qilingan O'RQ 225-son Qonuni, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi" Qonun, O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi 21.05.2019 yildagi O'RQ-539-son Qonun, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-sentabrdagi "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida"gi 565-son qonun va boshqalar. Mazkur qonunlar ijrosi prokuror nazorati predmeti hisoblanadi.

Vaholangki, elektr energiyasi resurslarini ishlab chiqarish va foydalanishga topshirish ishlari davlat siyositining asosiy maqsadlaridan biri hisobladi. Shu bois ham sohaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Elektr energetikasi tarmog'ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 23.10.2018 yildagi PQ-3981-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4142-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevralda qabul qilingan "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish

⁵³ O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-sonli Qonun. 4-модда.

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 57-sonli Karori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Yoqilg'i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va "raqamli energonazorat" tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-77-son Farmon va boshqa qaror va farmonlar qabul qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-54-son Qarorida yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlarini bartaraf etish va oldini olish, ulardan samarali va oqilona foydalanish orqali iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, iste'molchilar tomonidan elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Bosh prokurorning yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan o'rinbosari lavozimi joriy etish bilan elektr energiyasi sohasidagi qonuniylikni ta'minlash va qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish prokuratura nazoratining obyektlari qatoriga qat'iy kiritib qo'yildi.

Ma'lumki, prokuror nazorati predmetiga Prezident farmonlari va hukumat qarorlari kirmaydi. Ammo uning ijro etilishini ta'minlash vakolati mavjud. Shu bois ham elektr energiyasi sohasidagi Prezident qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ijrosi ustidan davlat nazoratini olib borishda qonuniylikni mustahkamlash, sohada yo'l qo'yilgan qonun buzilish holatlarini aniqlash va choralar ko'rish vakolati alohida Qaror bilan prokuratura zimmasiga yuklatildi.

Elektr energetikasi sohasida davlat nazorati tizimining rivojlanishi ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi ixtisoslashtirilgan Qonunchilik evolyutsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Bu tabiiy holat, chunki davlat nazorati va nazorati predmeti har doim huquqiy normalarda belgilangan majburiy talablarga rioya qilishdir.

Davlat nazorati davlat organlari, tashkilotlar, muassasalarga tegishli subyektlar (organlar, ularning bo'linmalari, mansabdor shaxslar) tomonidan amalga oshiriladi; vakillik va ijro etuvchi hokimiyatning shahar - shahar organlari; jamoat — barcha turdagi jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, alohida fuqarolar; xususiy-nodavlat nazorat tuzilmalari (maxsus yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar), masalan, xususiy xavfsizlik kompaniyalari, mustaqil auditorlik firmalari va boshqalar. Elektr energiyasi sohasida nazorat va nazoratni tashkil etish energiya qonunchiligi, monopoliyaga qarshi, ta'rif va iste'molchilar to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishining oldini olish, aniqlash va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonunida elektr energiyasi iste'molchilarining huquqlari va majburiyatlari, shu jumladan elektr ta'minoti korxonalarining majburiyatlari belgilab qo'yilgan. Elektr ta'minoti korxonalarining majburiyatlariga elektr ta'minoti shartnomalariga muvofiq iste'molchilarga elektr energiyasini yetkazib berilishini ta'minlash, elektr tarmoqlarining lozim darajadagi texnik holati va xavfsizligini ta'minlash, iste'molchilar tomonidan haqiqatda foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lovlar hisobini yuritishi kabi majburiyatlarini o'z ichiga olsa, elektr energiyasi iste'molchilarining huquqlari va majburiyatlariga o'z elektr qurilmalarini hududiy elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulash, elektr energiyasi yetkazib berishning to'xtatilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish kabi huquqlari va elektr ta'minoti shartnomasi shartlarida belgilangan elektr energiyasini iste'mol qilish rejimiga rioya etishi, foydalanilgan elektr energiyasi uchun haqni elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan muddatlarda o'z vaqtida to'lashi lozimligi kabi majburiyatlarini o'z ichiga oladi.

Qonuniylik kafolatlarining eng muhim tarkibiy qismi qonuniylik talablarining bajarilishi ustidan prokuror nazoratining yuqori darajasini, prokuratura tomonidan fuqarolarning buzilgan konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini tiklashga yordam beradigan huquqiy javobgarlik va himoya choralarining samaradorligini ta'minlash, shuningdek, yuqori darajadagi nazoratdir. O'zbekistonda elektr energiyasi sohasidagi yuqorida nomi keltirilgan qonun hujjatlarini shu soha ishtirokchilar bo'lgan har bir davlat idorasi, korxonasi, muassasa, tashkilot va fuqarolar tomonidan qonun doirasida bajarilishini nazorat qilish prokuror nazorati predmeti hisoblanadi.

Bugun prokuratura organlari xodimlari zimmlariga yuklatilgan har qanday vazifani bajarishga vijdonan, sadoqat va yuksak mas'uliyat bilan yondashmoqda desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-sonli Qonun. <https://lex.uz/ru/docs/-106197>
3. Дворецкий И.Х. Латинско – русский словарь. 5-С439. – М., 1998. – С. 621.
4. Амирбеёв К. Законность и роль прокуратуры в надзоре за ее состоянием//Право и жизнь. 2003. №6. С. 38.

5. О.М. Мадалиев Прокурор назорати. Дарслик. Умумий қисм. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. 9-бет. Сарлавҳада: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, ТДЮИ.
6. Галузо В.Н. Система правоохранительных органов России. Учебник для вузов. – М. 2010.-С 463.
7. Prokuror nazorati. Darslik. To'ldirilgan qayta ishlangan nashr. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish. 2023-y. – 75-bet.
8. Giyosbek, M. (2024). LEGAL CONSEQUENCES AND SUBJECTIVE SIGNS OF CYBERCRIME ATTACK ON STATE AND PRIVATE PROPERTY. International Journal of Law And Criminology, 4(01), 64-70.